

# 2030-yilga kelib metanol va ammiakka bo'lgan global talab taklifdan oshib ketishi mumkin

// 05.08.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2030-yilga-kelib-metanol-va-ammiakka-bo-lgan-global-talab-ta>

## Jahon kimyo sanoati xabarлари



### 2030-yilga kelib metanol va ammiakka bo'lgan global talab taklifdan oshishi mumkin

[uzkimyosanoat.uz](https://uzkimyosanoat.uz) [@uzkimyosanoat](https://t.me/uzkimyosanoat) [uzkimyosanoat](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat) [uzkimyosanoat](https://www.facebook.com/uzkimyosanoat) [@uzkimyosanoat](https://www.youtube.com/@uzkimyosanoat)

2030-yilga kelib dunyoda metanol va ammiak ishlab chiqarish sur'atlari talab o'sishi sur'atlariga yetisha olmasligi mumkin. Bu ma'lumot Kept konsalting agentligi tadqiqotiga asoslangan holda keltirilmoqda. Bu holat quvvatlarni oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq hozircha ayrim eksportyorlarni qimmat logistika va zarur infratuzilmaning yetishmasligi cheklab turibdi.

Kept tadqiqotiga ko'ra, 2030-yilga kelib dunyoda metanolga bo'lgan talab 107-131 million tonnagacha o'sishi mumkin, 2040-yilga kelib esa — 125-161 million tonnagacha.

Shu bilan birga, allaqachon 2030-yilning o'zida 5-19 million tonna quvvat yetishmasligi yuzaga kelishi mumkin.

Ammiak bo'yicha ham shunga o'xshash vaziyat kuzatilmoqda: qo'shimcha quvvatlarga bo'lgan ehtiyoj 5-13 million tonna deb baholanmoqda.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**